

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK ASOSLARI VA INNOVATSION YONDASHUVLARI

Erkinboyeva Go'zal Dilmurod qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti 1 - kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19492673>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida dars samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari asosida ta'lim sifatini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, innovatsion faoliyati va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish masalalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, ta'lim sifati, AKT, kompetensiya, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti bevosita ta'lim tizimining rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi bilim olish jarayoniga mustahkam zamin yaratadi. Shu bois mazkur bosqichda dars samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Ushbu qonunning 4-moddasida ta'limning asosiy prinsiplari — uzluksizlik, ochiqlik va sifatga yo'naltirilganlik ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, 6-moddada ta'lim tizimining bosqichlari belgilangan bo'lib, boshlang'ich ta'lim muhim bo'g'in sifatida e'tirof etiladi. 11-moddada esa ta'lim sifati va davlat ta'lim standartlariga rioya etish zarurligi ta'kidlangan.

Prezident farmonlarida ham ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Dars samaradorligi tushunchasi va uning ahamiyati

Dars samaradorligi — bu o'quvchilarning bilimni chuqur o'zlashtirishi, mustaqil fikrlashi, o'z bilimni amaliyotda qo'llay olishi bilan belgilanadi. Samarali dars o'quvchini faollikka undaydi, uning qiziqishini oshiradi va bilimlarni ongli ravishda egallashga yordam beradi.

Samarali darsning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

aniq maqsadga; yo'naltirilganlik,

o'quvchilar faolligi,

interfaollik,

individual yondashuv.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar.

Boshlang'ich ta'limda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

Kompetensiyaviy yondashuv — o‘quvchilarda nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim — o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘lim berishni nazarda tutadi.

Faol (interfaol) yondashuv — o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish orqali ularning fikrlashini rivojlantiradi.

Interfaol metodlarning o‘rni va ahamiyati.

Interfaol metodlar dars samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin muloqot qilishga va o‘z fikrini asoslab berishga o‘rgatadi.

Amaliyotda keng qo‘llaniladigan metodlar bular:

“Aqliy hujum”

“Klaster”

“Insert”

rolli o‘yinlar

kichik guruhlarda ishlash.

Qosimova K. va boshqalar tomonidan yaratilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” asarida boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda samarali ekani alohida ta‘kidlangan.

Ona tili darslarida samaradorlikni oshirish

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari bu metodlar ham samarali hisoblanadi, bular esa:

matn ustida ishlash

savol-javob

hikoya tuzish

ijodiy yozuv mashqlari

Ushbu metodlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi hamda ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Zamonaviy ta‘limni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Multimedia vositalari, elektron darsliklar va taqdimotlar darsni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

AKTning afzalliklari:

o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi

vizual tushunishni yengillashtiradi

mustaqil ta‘lim olish imkonini yaratadi

O‘qituvchining roli

Dars samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Zamonaviy o‘qituvchi:

innovatsion metodlardan foydalana olishi

o‘quvchilarni rag‘batlantira olishi

ijodkor bo‘lishi

pedagogik texnologiyalarni bilishi zarur

Amaliy tavsiyalar

Dars samaradorligini oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

darsni qiziqarli savol bilan boshlash

guruhli ishlashni yo'lga qo'yish

o'yin metodlaridan foydalanish

AKT vositalarini qo'llash

o'quvchilarni rag'batlantirish

dars yakunida refleksiya o'tkazish

Xulosa

Muxtasar qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda dars samaradorligini oshirish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biridir. Pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlar bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undaydi.

Shu bois, o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, zamonaviy metodlarni o'zlashtirishi va ta'lim jarayoniga tatbiq etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni
2. Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 24 aprelda PF-5712-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04. 2019 yil.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh, Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent "Nosir", 2009
4. Boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar.
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy manbalar.